

Barqaror rivojlanish - ustuvor maqsad

Kuni kecha O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasida Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish muammolari va ilmiy asoslari” ilmiy tadqiqot markazi bilan hamkorlikda “O‘zbekiston: barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishning mexanizmlari va ustuvor vazifalari (ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy jihatlari)” mavzusida ilmiy-amaliy seminar bo‘lib o‘tdi.

Tadbir O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish, global iqlim o‘zgarishi muammolarini hal etish, ya’ni iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish choralari amalga oshirish, eko-biznes va bu boradagi ilmiy ishlar hamda innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlari va ustuvor vazifalarini muhokama etishga bag‘ishlandi.

Seminar ishtirokchilari O‘zbekistonni barqaror rivojlantirish maqsadlariga erishishda mavjud bo‘lgan xavflar va muammolar to‘g‘risida gapirdilar. O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi, O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish muammolari va ilmiy asoslari ilmiy tadqiqot markazi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti vakillari seminar mavzusi yuzasidan ma’ruzalar va taqdimotlar qildilar.

Uchrashuv yakunida muhokama va bahs-munozara bo‘lib o‘tdi. Mutaxassislar ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga javob berdilar

Устойчивое развитие

На днях в Международной исламской академии Узбекистана совместно с Научно-исследовательским центром «Проблемы и научные основы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском Государственном экономическом университете был организован научно-практический семинар на тему «Узбекистан: механизмы и приоритетные задачи (социальные, экологические и экономические аспекты) реализации принципов устойчивого развития».

Целью мероприятия стало обсуждение проблем и решений развития возобновляемых источников энергии, мер и действий по борьбе с изменением климата и адаптации к его последствиям, развития эконо-бизнеса в стране, повышения научного потенциала, а также внедрения новейших энергосберегающих и ресурсосберегающих технологий. Были представлены тематические доклады и презентации.

Участники семинара – представители Международной исламской академии, Узгидромета, Научно-исследовательского центра «Проблемы и научные основы развития экономики Узбекистана», Университета мировой экономики и дипломатии, преподаватели и студенты выразили единое мнение, что достижение целей устойчивого развития, правильные решения в этом направлении здесь и сегодня являются залогом стабильного и безопасного развития в будущем.

Специалисты ответили на многочисленные вопросы участников мероприятия.

